Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologik ta'lim yo'nalishida o'qituvchilarni muhandislik kompetensiyalariga ega pedagog sifatida tayyorlashning zamonaviy metodik asoslari xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar tahlili asosida o'rganilgan. Xususan, Project-Based Learning, Problem-Based Learning, STEM/STEAM texnologiyalari, simulyatsiya va virtual laboratoriyalar, mechatronika modullari, portfel asosida baholash hamda ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan dual ta'limning nazariy va amaliy jihatlari batafsil yoritilgan. Tadqiqot natijalari mazkur metodlarning texnologik ta'lim o'qituvchilarida konstruktiv fikrlash, texnik dizayn, diagnostika, muammoli vaziyatlarni hal qilish, tajriba-sinov ishlarini loyihalash hamda fanlararo integratsiya kompetensiyalarini shakllantirishdagi samaradorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mavjud ilmiy manbalar tahlili mahalliy sharoitda to'liq tatbiq etish uchun zarur bo'lgan amaliy mexanizmlar, infratuzilma, o'qituvchilar malakasi va o'quv jarayonini modernizatsiya qilish bilan bog'liq ilmiy-bo'shliqlar mavjudligini aniqladi. Mazkur maqola texnologik ta'limni modernizatsiya qilish va muhandislikka yo'naltirilgan kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy asos yaratadi.

Kalit so'zlar: texnologik ta'lim; muhandislik kompetensiyalari; Project-Based Learning; Problem-Based Learning; STEM/STEAM; simulyatsiya; virtual laboratoriyalar; mechatronika; dual ta'lim; portfel baholash; pedagogik innovatsiyalar.

Abstract: This article examines the modern methodological foundations for preparing technology education teachers as educators equipped with engineering competencies, based on an analysis of international and national scientific literature. The study provides an in-depth review of the theoretical and practical aspects of Project-Based Learning, Problem-Based Learning, STEM/STEAM approaches, simulation and virtual laboratories, mechatronics modules, portfolio-based assessment, and dual education integrated with industry. The research findings demonstrate that these methods effectively support the development of constructive thinking, technical design, diagnostics, problem-solving, experimental task planning, and interdisciplinary integration competencies among future technology teachers. Furthermore, the analysis identifies existing scientific and practical gaps related to the need for infrastructure development, teacher qualification improvement, and modernization of the educational process to fully implement these approaches in local contexts. The article establishes a theoretical basis for further research aimed at modernizing technology education and strengthening engineering-oriented competencies.

Key words: technology education; engineering competencies; Project-Based Learning; Problem-Based Learning; STEM/STEAM; simulation; virtual laboratories; mechatronics; dual education; portfolio assessment; pedagogical innovations.

Аннотация: В данной статье изучены современные методические основы подготовки педагогов технологического образования как специалистов, обладающих инженерными компетенциями, на основе анализа международных и отечественных научных источников. Особое внимание уделено теоретическим и практическим аспектам Project-Based Learning, Problem-Based Learning, STEM/STEAM-технологий, симуляций и виртуальных лабораторий, мехатроники, портфельного оценивания, а также дуального образования, интегрированного с производством. Результаты исследования показывают, что данные методы способствуют формированию у будущих преподавателей технологического образования таких компетенций, как конструктивное мышление, техническое проектирование, диагностика, решение проблемных ситуаций, проектирование экспериментальных задач и междисциплинарная интеграция. Анализ научных источников также выявил существующие научно-практические пробелы, связанные с необходимостью развития инфраструктуры, повышения квалификации педагогов и модернизации образовательного процесса для полноценного внедрения данных подходов в национальные условия. Статья формирует теоретическую основу для дальнейших исследований в области модернизации технологического образования и развития инженерных компетенций.

Ключевые слова: технологическое образование; инженерные компетенции; Project-Based Learning; Problem-Based Learning; STEM/STEAM; симуляция; виртуальные лаборатории; мехатроника; дуальное обучение; портфельное оценивание; педагогические инновации.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasi tomonidan barcha sohalar qatorida muhandislik sohasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda qator ishlar amalga oshirildi, muhim qarorlar qabul qilindi hamda ustuvor vazifalar belgilab berildi ^[1-4]. Xususan, zamonaviy talablarga javob beradigan muhandislik maktablarini tashkil etish, ularning faoliyatini samarali yo'lga qo'yish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich amalga oshirilmogda.

Zamon talabi asosida raqobatbardosh muhandis kadrlar tayyorlash maqsadida tizimli islohotlar boshlangan bo'lib, bu jarayonni faqat oliy ta'lim doirasida emas, balki maktab davridanoq boshlash maqsadga muvofiqdir. Chunki kelajak muhandislarini yetishtirish, avvalo, o'quvchilarda texnik yo'nalishlarga qiziqish uyg'otish, ularni kasbiy yo'naltirish va muhandislik faoliyati uchun zarur bo'lgan tayanch ko'nikmalarni shakllantirishdan boshlanadi.

Maktabda matematika, fizika, kimyo va biologiya kabi fanlar muhandislikka asos bo'luvchi fundamental bilimlarni bersa-da, texnologiya fani (ilgari "mehnat fani" deb yuritilgan) o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda, kasblarga yo'naltirishda va muhandislik faoliyatiga doir qobiliyatlarni shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Aynan texnologiya fani o'qituvchilari o'quvchilarda turli texnik jarayonlar, qurilmalar, mexanizmlar va konstruktorlik faoliyatiga qiziqish uyg'otib, ularni dastlabki muhandislik kompetensiyalariga ega bo'lishiga xizmat qiladi.

Shu bois, zamonaviy talablar asosida malakali muhandislar tayyorlash jarayonini kuchaytirish uchun, avvalo, muhandislik kompetensiyalariga ega bo'lgan texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Bunday pedagoglar orqali o'quvchilarning muhandislik sohasiga bo'lgan qiziqishini oshirish, texnik tafakkurni rivojlantirish hamda kelajakning e'tiborli va salohiyatli yosh muhandislarini shakllantirish mumkin, deb hisoblayman.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Texnologik ta'lim yo'nalishida o'qituvchilarni muhandislik kompetensiyalariga ega pedagog sifatida tayyorlash jarayoni zamonaviy texnologiyalar, integratsiyalashgan o'quv jarayonlari va kompetensiyaviy yondashuvga asoslanadi. Bu borada sohaga taalluqli xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar tahlili o'tkazildi. Ushbu manbalarda PBL, PrBL, STEM/STEAM kabi metodlar taklif etilib, ular muhandislik kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida qaralgan. Muammo asosida o'qitish (Problem-Based Learning, PrBL) metodi yuzasidan o'rganilgan manbalarda metodning aniq ta'riflari, strukturasi va pedagogik talablari haqida fundamental tahlil keltirilgan. J.R. Savery PrBLning markazida mustaqil izlanish, real muammolarni tahlil qilish va ilgari surilgan taxminlarni sinovdan o'tkazish usulini ta'kidlaydi. Muallif fikriga ko'ra, PrBL jarayonida o'qituvchi faqat yo'naltiruvchi rolda bo'lib, talabaning reflektiv fikrlashi yetakchi o'rinda turadi ^[5]. Bu metod texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda muhim bo'lib, ularga real texnik nosozliklarni hal qilish va funksional yechimlar ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning, PBL) metodi bo'yicha tadqiqotlarda PBLning mazmunli ta'limga qo'shadigan hissasi asoslab beriladi. PBLning eng kuchli tomoni sifatida murakkab, ko'p bosqichli muammolarni hal qilish jarayonida talabalarda tizimli fikrlash va muhandislik dizayn kompetensiyalarining shakllanishi ko'rilgan. Manba mualliflari loyihaning samaradorligi o'quv jarayonining to'g'ri rejalashtirilishiga, texnik resurslarning mavjudligiga va baholash mexanizmlarining aniqligiga bog'liqligini ta'kidlaydi ^[6]. Bu xulosalar texnologik ta'lim bakalavrlari uchun ayniqsa dolzarb, chunki ular bo'lg'usi texnologiya o'qituvchilari sifatida loyihaviy darslarni tashkil etishga mas'ul bo'ladi.

H. Hidayat tomonidan 20 yil davomida turli mamlakatlarda PBLning muhandislik ta'limiga ta'siri o'rganilgan bo'lib, PBL talabalarda kreativlik, tizimli tahlil, texnik dizayn, risk baholash va hamkorlik kompetensiyalarini sezilarli darajada oshirishi isbotlangan ^[7]. Tadqiqotning texnologik ta'lim uchun ahamiyati shundaki, texnologiya o'qituvchisi ham PBLni faqat uslub sifatida emas, balki muhandislik fikrlash metodologiyasi sifatida qo'llashi lozim. Bu esa ularni nafaqat pedagog, balki dizayner va texnik ekspert sifatida ham shakllantiradi.

M. Daugherty tomonidan o'tkazilgan izlanishlarda taklif etilgan STEAM modeli (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) muhandislik ta'limining yangi paradigmasi hisoblanadi. Muallif STEAM o'quv jarayonini fanlararo integratsiya, kreativ yondashuv va texnik dizayn metodlarining uyg'unligi sifatida talqin qiladi ^[8]. Texnologik ta'lim o'qituvchilari uchun ushbu yondashuv muhandislik kompetensiyalarini maktab bosqichidan boshlab shakllantirishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

A. Negahbaning tadqiqoti simulyatsiya texnologiyalarining muhandislik ta'limiga qo'shgan hissasini ochib beradi. Simulyatsiya orqali talabalar xavfli yoki qimmat tajribalarni virtual muhitda sinab ko'ra oladi, murakkab jarayonlarni modellashtirishni o'rganadi. Negahban simulyatsiya real laboratoriyaning to'liq o'rnini bosa olmasligini, ammo o'quv jarayonini sezilarli darajada boyitishini ta'kidlaydi ^[9].

A.J. Magananing tadqiqotida modellashtirish va simulyatsiya orqali o'quv jarayonida murakkab tizimlarni bosqichma-bosqich o'rgatish metodikasi ishlab chiqilgan. Talabalar avval soddalashtirilgan modellarni, keyin murakkab tizimlarni qurish orqali tizimli fikrlashni rivojlantiradi ^[10]. Texnologiya o'qituvchilari uchun bu, xususan, elektronika, mexanika va robototexnika bo'yicha tajribalarni xavfsiz tarzda o'rgatish imkonini yaratadi. Bu texnologiya ayniqsa o'qituvchilarni mechatronika yo'nalishida tayyorlash uchun juda samarali va amaliy asosdir.

Bir guruh tadqiqotchilar tomonidan portfel baholashdagi eng samarali mexanizmlar tahlil qilingan. Portfel (Portfolio) muhandislik talabalarida reflektiv fikrlashni, loyiha natijalarini tahlil qilishni va o'z faoliyatini baholash ko'nikmalarini shakllantiradi, deb ta'kidlangan ^[11].

M.W. Ostheimer portfel baholashda uchraydigan subyektivlik, baholash mezonlarining noaniqligi va plagiat xavfini yoritadi. Shu bilan birga, u portfelning eng muhim funksiyasi – talabani mustaqil o'rganishga undash ekanini ta'kidlaydi ^[12]. Bu texnologik ta'lim o'qituvchilari uchun dolzarb, chunki ular kelajakda o'quvchilarni portfel asosida baholash metodiga o'rgatishi lozim bo'ladi. Bu texnologik ta'lim o'qituvchilari uchun baholashning muhim nazariy asosini beradi.

Yurtimizda ham bir qator ta'lim islohotlari amalga oshirilmoqda. O'zbekiston oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish, texnik yo'nalishlar bo'yicha laboratoriyalarni yangilash va o'quv dasturlarini amaliyotga moslashtirish vazifalarini o'z ichiga oluvchi farmon va qarorlar qabul qilinmoqda ^[2-3]. Farmon texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash uchun normativ asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, ushbu sohadagi qarorda ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan ta'limni yo'lga qo'yish bo'yicha aniq mexanizmlar belgilaydi ^[4]. Dual ta'lim texnologik ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan talabalarni real korxonadagi tajriba, texnik madaniyat, xavfsizlik normalari va muhandislik madaniyati bilan yaqindan tanishtiradi.

Tursunova texnologiya o'qituvchilarida shakllanishi zarur bo'lgan pedagogik, konstruktiv, dizaynerlik va muhandislik kompetensiyalarini mahalliy sharoitda tahlil qiladi. Muallif amaliy mashg'ulotlar va loyiha asosida o'qitishning o'rni katta ekanini asoslaydi ^[13].

Ushbu maqola texnologiya o'qituvchilarini tayyorlashda uchraydigan resurs yetishmovchiligi, o'quv dasturlarining zamonaviy texnologiyalardan orqada qolishi va o'qituvchilar malakasining sustligi muammolarini ko'rsatadi. Muallif zamonaviy texnik modullar, mechatronika, raqamli kompetensiyalarni kiritish zarurligini ta'kidlaydi ^[14].

Yuqoridagi xalqaro va mahalliy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, texnologik ta'lim yo'nalishida o'qituvchilarni muhandislik kompetensiyalariga ega pedagog sifatida tayyorlash – ko'p omilli, integratsion va uzluksiz takomillashtirishni talab qiladigan jarayon hisoblanadi. PBL, PrBL, STEM/STEAM, simulyatsiya, portfel asosida baholash va dual ta'lim kabi yondashuvlarning nazariy va amaliy asoslari ilmiy jihatdan yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, ularning texnologik ta'lim bakalavriati sharoitida kompleks joriy etilishi hali ham izchil hal etilmagan masala bo'lib qolmoqda. Xususan, xalqaro manbalarda taklif etilgan metodik modellarning mahalliy real sharoitga moslashtirish mexanizmlari, laboratoriya va texnik infratuzilma yetishmovchiligi sharoitida metodlarni qo'llash strategiyalari, o'qituvchi kompetensiyalarini monitoring qilish tizimlari hamda muhandislik fikrlashining maktabgacha, umumiy o'rta va oliy ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzviyligi bo'yicha ilmiy bo'shliqlar mavjud. Shu bilan birga, respublika darajasida qabul qilinayotgan ta'lim islohotlari yangi imkoniyatlar yaratgani holda, ular uchun ilmiy-metodik asoslar hamon yetarlicha ishlab chiqilmaganini ko'rsatmoqda. Demak, texnologik ta'lim o'qituvchilarini muhandislikka yo'naltirilgan zamonaviy metodlar asosida tayyorlash borasidagi mavjud ilmiy meros ushbu yo'nalishning konseptual poydevorini yaratsa-da, amaliy mexanizmlarni chuqur va tizimli ishlab chiqish, mahalliy sharoitga mos innovatsion modellar yaratish hamda ularning samaradorligini empirik tadqiqotlar orqali isbotlash ilmiy izlanishlarning dolzarb va zarur yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Shu bois, ushbu tahlil tadqiqotlar uchun metodik asos va ilmiy motivatsiya vazifasini bajardi hamda texnologik ta'limda muhandislik kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini ko'rsatdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

- 1. Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning, PBL).** Muhandislik – bu “muammoni hal qilish uchun loyihalash” jarayoni. Shuning uchun PBL texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda asosiy metod bo'lib hisoblanadi. Bu metod orqali konstruktorlik fikrlash, dizayn va modellashtirish, muammoni tahlil qilish, jamoada ishlash, muhandislik jarayonlarini loyihalash kabi kompetensiyalar shakllanishiga asos bo'ladi. Bu metod “Smart uy” maketi yaratish (sensorlar, Arduino, rele, chiroq boshqaruvi), 3D printerda “robot qo'l” chop etish va uni Arduino orqali boshqarish, “Avtomatik sug'orish tizimi”ni loyihalash kabi topshiriqlar berish orqali amalga oshiriladi.
- 2. Muammo asosida o'qitish (Problem-Based Learning, PrBL).** PrBL – hal qilinishi kerak bo'lgan real texnik muammo orqali o'qitish metodidir. Texnologiya o'qituvchisi maktabda o'quvchilarga “real muammolar orqali o'rgatish” uchun birinchi bo'lib o'zi muhandislik muammolarini tahlil qila olishi zarur. Buning uchun



talabalarga “Induksion datchik ishlamayapti – sababini toping”, “Robot chiziqni kuzatmayapti – nosozlikni aniqlang va bartaraf qiling”, “3D model chopda deformatsiya yuzaga keldi – sababi nima?” kabi muammoli topshiriqlar berish orqali ushbu metod yordamida muhandislikdagi diagnostika, tahlil, yechim taklif qilish ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantiradi.

3. **STEM/STEAM-integratsion o'qitish metodi** (STEM – Science, Technology, Engineering, Mathematics; ba'zan Arts qo'shilib STEAM bo'ladi). Texnologiya fanining asosiy vazifasi – fanlarni birlashtirib real texnik yechimga aylantirishdan iborat. STEM metodida “Ko'prik loyihalash va sinash” kabi topshiriq berish orqali fizika fanidan yuklama kuchi, matematika fanidan nisbatlar, muhandislikka oid fanlardan konstruksiya turi, texnologiyaga oid fanlardan material tanlash, test o'tkazish ya'ni sinashga oid fanlardan yoki fan modullaridan modelni yuklama ostida sinash kabi mavzularga oid bilimlarni integratsiyalashgan tarzda qo'llash ko'nikma va kompetensiyasi shakllanadi. Texnologiya fani o'qituvchisi maktabda o'quvchilarga shunday darsni o'ta olishi uchun OTMda IVF (Integrated View of Fields) bo'yicha mashg'ulotlar bo'lishi zarur.
4. **Mechatronik modullar asosida o'qitish.** Bugungi texnologiya darslari faqat bolg'a va arra kabi mehnat qurollari yoki elektr qurollari bilan cheklanib qolmaydi – ular elektronika, robototexnika va dasturlash bilan boyitilgan. Shuning uchun talabalarga sensorlar va aktuatorlar, Arduino bilan avtomatik tizimlar yaratish, servomotorlar bilan ishlash, IoT qurilmalari, oddiy PLC tushunchalari kabi modullar o'rgatilishi lozim. Bunda “Avtomatik eshik boshqaruvi” – harakat sensori → servo → boshqaruv algoritmi kabi topshiriqlar beriladi. Bu metod orqali muhandislik kompetensiyalari ko'p yo'nalishli integratsiya (elektronika va dasturlash) orqali shakllantiriladi.
5. **Simulyatsiya va virtual laboratoriyalar metodi.** Hozirgi kunda muhandislikda Proteus (elektronika simulyatsiyasi), Tinkercad (Arduino simulyatori), Fusion 360, Kompas, SolidWorks (2D, 3D konstruksiya va dizayn), ANSYS, Adams (kuchlanish tahlili) kabi amaliy dasturiy vositalar keng qo'llanadi. Real laboratoriyaga ega bo'lmagan ko'plab OTMlarda virtual laboratoriyalar iqtisodiy jihatdan ham, o'qitish samaradorligi jihatidan ham eng qulay yechimdir. Masalan, talaba 3D ko'prik modelini Fusion 360'da yaratadi → ANSYS'da mustahkamlikka sinaydi → maketini 3D printerda chop qiladi.
6. **Ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan ta'lim (dual education).** Texnologiya o'qituvchisi ishlab chiqarishni ko'rmagan bo'lsa – u maktab o'quvchisini muhandislikka yo'naltira olmaydi. Shuning uchun OTM va korxonalar hamkorligida texnoparklarga tashrif, korxonada 1–2 oylik muhandislik amaliyoti, real ishlab chiqarish jarayonining tahlili, zavod bosh muhandislari bilan seminarlar hamda so'ngida maktabda pedagogik amaliyotlar tashkil etiladi. Bu metod o'qituvchini “haqiqiy texnik jarayonlarni biladigan pedagog”ga aylantiradi.
7. **Portfel va loyiha himoyasi asosida baholash.** Bunda baholash jarayonning o'zidan iborat bo'ladi. Talaba portfelida 3D modellar, Arduino loyihalari, elektronika sxemalari, STEM dars ishlanmalari, real muammolarga yechimlar, dars uchun o'quv maketlari bo'lishi kerak. Bu baholash usuli talabaning muhandislik kompetensiyalarini to'liq ochib beradi.
8. **Mentorlash va ustoz–shogird modeli.** OTMda tajribali muhandis-pedagoglar tomonidan dars jarayonini kuzatish, amaliy maslahatlarga boy suhbatlar, birgalikda loyihalar tayyorlash, dars ishlanmalari tayyorlash, loyiha himoyasiga tayyorlash amalga oshiriladi. Mentorlik ayniqsa texnologiya o'qituvchilarida pedagogik + muhandislik integratsiyasini kuchaytiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy muhandislik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan metodlar o'qitish jarayonining mazmuni, shakli va texnologiyasini tubdan o'zgartiradi. Texnologik ta'lim yo'nalishida taklif etilayotgan ushbu muhandislik kompetensiyalarini shakllantirish metodlari qo'llanganda bir qator samarali natijalarga erishiladi.

1. Loyiha asosida o'qitish (PBL) – amaliy muhandislik fikrlashni shakllantirish

1. Konstruktorlik va dizaynerlik fikrlashi shakllanadi. Talaba buyumni yoki tizimni avval tahlil → modellashtirish → loyihalash → sinash → takomillashtirish bosqichlari orqali yaratishni o'rganadi. Masalan, “Smart uy” maketini yaratishda reley, sensor, Arduino va elektron sxemalarni uzviy bog'lashni tushunadi.
2. Muammoni tahlil qilish va texnik yechim ishlab chiqish kompetensiyasi shakllanadi. Misol: “Avtomatik sug'orish tizimi”da talaba tuproq namligini o'lchash, signal qayta ishlash, aktuatorni boshqarish bosqichlarini bir butun tizim sifatida ko'radi.

3. Jamoada ishlash va loyiha boshqaruvi ko'nikmalari shakllanadi. Talabalar rollarga bo'linib (dizayner, texnolog, dasturchi) ishlashni o'rganadi.

4. Texnik hujjatlar bilan ishlash ko'nikmasi shakllanadi. PBL jarayonida talabalar chizmalar, sxemalar, texnik pasport, 3D modellar yaratadi.

Umumiy natija: talaba "tayyor bilim oluvchi" emas, balki mustaqil muhandislik yechimini yaratuvchiga aylanadi.

2. Muammo asosida o'qitish (PrBL) – diagnostika va nosozliklarni aniqlash malakasi

1. Texnik muammolarni aniqlash va tashxis qo'yish ko'nikmasi shakllanadi. Talaba induksion datchik, servo, Arduino yoki 3D printerdagi nosozliklarni ilk belgilar, sabablar, oqibatlar bo'yicha tahlil qiladi.

2. Variantli yechimlarni ishlab chiqish kompetensiyasi shakllanadi. Masalan: "Robot chiziqni kuzatmayapti" topshirig'ida u sensor iflosligi, PID xatolik, yorug'lik muammosi, koddagi xatolik kabi variantlarni tahlil qiladi.

3. Analitik fikrlash va texnik mantiq rivojlanadi.

4. Risklarni oldindan ko'ra bilish malakasi shakllanadi. Bu maktabda real texnik jarayonlarni tushuntirishda juda muhim.

Umumiy natija: talaba diagnostika + tahlil + yechim taklifi qila oladigan darajaga yetadi.

3. STEM/STEAM integratsion metodi - fanlararo muhandislik kompetensiyalarining shakllanishi

1. Fanlararo integratsiya kompetensiyasi shakllanadi. Fizika + matematika + texnologiya + muhandislikni bir vaqtning o'zida qo'llash malakasi. Misol: "Ko'prik loyihalash va sinash" topshirig'ida yuklama kuchi, material tanlash, geometrik nisbatlar, konstruksiya turi birlashtiriladi.

2. Murakkab tizimlarni tushuntirish va yaratish qobiliyati. Talaba "fanlar birlashganda natija yaxshilanadi" tamoyilini o'zlashtiradi.

3. Eksperimental ishlarni tashkil etish ko'nikmalari rivojlanadi. Ko'prik maketini sinash, deformatsiyani o'lchash, natijalarni grafikda tahlil qilish. Maktabda STEAM darslarini o'ta oladigan pedagogga aylanadi. IVF (integrated view of fields) bo'yicha mashg'ulotlar bunga asos bo'ladi.

Umumiy natija: talaba "fanlar integratori muhandis-pedagog" sifatida shakllanadi.

4. Mexatronik modullar asosida o'qitish – elektronika + mexanika + dasturlash integratsiyasi

1. Sensorlar, aktuatorlar, servo, Arduino bilan ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

2. Avtomatlashtirilgan tizimlarni loyihalash malakasi shakllanadi. Masalan: "Avtomatik eshik"da: sensor → signal → servo → algoritm → sinov → takomillashtirish.

3. Algoritmik fikrlash va dasturlash kompetensiyasi kuchayadi.

4. Elektronika va mexanikani birlashtira olish ko'nikmasi shakllanadi.

Umumiy natija: talaba real mehatronik moslama yaratish darajasiga yetadi.

5. Simulyatsiya va virtual laboratoriyalar – xavfsiz, iqtisodiy va samarali o'qitish muhiti

1. Mahoratni xavfsiz muhitda shakllantirish. Elektronika yoki mexanika bo'yicha xatolar qimmatga tushmaydi; talaba bemaol tajriba qiladi.

2. Murakkab muhandislik dasturlari bilan ishlash malakasi shakllanadi. Fusion360, Kompas, SolidWorks, ANSYS, Proteus, Tinkercad va boshqalar.

3. Model yaratish → tahlil qilish → qurish ketma-ketligi shakllanadi. Ko'prik modelini simulyatsiyada sinash → kuchlanish tahlili → maketini 3D chop qilish.

4. Mahoratni individual sur'atda rivojlantirish. Talaba mustaqil mashq qiladi, xatolarni tahlil qiladi.

Umumiy natija: talaba "virtual muhandislik laboratoriyasi"da to'liq ishlay oladigan darajaga chiqadi.

6. Dual ta'lim – real ishlab chiqarish bilimlarini o'zlashtirish

1. Ishlab chiqarish jarayonlarini to'liq tushunish. Texnologik liniyalar, avtomatlashtirilgan jarayonlar, mehnat xavfsizligi, texnik reglamentlar haqida tushuncha paydo bo'ladi

2. "Real muammo – real yechim" tajribasi. Talaba zavoddagi ko'rgan muammolarni laboratoriyada yoki maktab darsida tahlil qila oladi.



3. Kasbiy motivatsiya oshadi. Talaba o'zini kelajakdagi pedagog-muhandis sifatida tasavvur qila boshlaydi.
4. Korporativ muhandislar bilan muloqot malakalari shakllanadi

Umumiy natija: talaba "faqat nazariy bilimga ega pedagog" emas, haqiqiy ishlab chiqarish tajribasiga ega muhandis-pedagogga aylanadi.

7. Portfel va loyiha himoyasi asosida baholash – haqiqiy kompetensiyalarni aniqlash

1. Talabaning haqiqiy amaliy ishlari yig'iladi. 3D modellar, Elektron sxemalar, Arduino loyihalari, STEM dars ishlanmalari, Real muammolar yechimlari
2. Baholash adolatli bo'ladi. Yodlab olingan nazariya emas, balki yaratilgan mahsulot baholanadi.
3. Talaba bozor talabiga mos portfelga ega bo'ladi. Ishga kirishda mustahkam ustunlikka ega bo'ladi.

8. Mentorlik va ustoz-shogird modeli – tajriba almashish orqali sifatli pedagog tayyorlash

1. Talaba tajribali pedagog-muhandisdan real darslar uslubiyatini o'rganadi
2. Murakkab muhandislik loyihalarini tayyorlashda individual ko'mak oladi
2. Dars ishlanmasi, loyiha himoyasi, texnik hujjatlar yozish malakasi oshadi
4. Pedagogik psixologiya + muhandislik metodikasi integratsiyasi kuchayadi

Umumiy natija: talaba akademik nazariya emas, amaliy tajriba asosida shakllangan malakali o'qituvchiga aylanadi.

TADQIQOT TAHLILI

Har qanday metodning ham qo'llashga qo'yiladigan talablar mavjud bo'lib, taklif etilayotgan metodlarni talim jarayoniga qo'llashda yuzaga keladigan murakkabliklar, nimalarga e'tibor berish kerakligi, va aks holda kelib chiqadigan salbiy oqibatlarni ko'rib chiqaylk.

1. Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning, PBL) metodi

Qo'llanishdagi murakkabliklar va noqulayliklar: Ushbu metodni bir neshta murakkabliklar va noqulayliklari bo'lib ulardan biri Resurs yetishmasligidadir. Arduino, sensorlar, 3D printer, elektronika qismlari bo'lmasa, PBL bajarilmaydi. "Smart uy" loyihasi misol keltirgan edik. Bu loyiha uchun kerak bo'lgan ultratovush datchigi yoki 3D printer yo'q bo'lsa, loyiha to'xtab qoladi. Yana bir noqulayligi uning Ko'p vaqt talab qilishi. Bir loyiha bir necha hafta davom etadi, o'quv rejalari bilan moslash qiyin. Guruh ichida faollik nomutanosibligi. Ba'zi talabalar ishlaydi, boshqalari "bepul yo'lovchi"ga aylanadi. Murakkab loyiha talabalarning tayyorgarlik darajasi bilan mos kelmasligi.

E'tibor berish kerak bo'lgan jihatlari: Loyiha bosqichlarini aniq rejalashtirish: texnik shart → dizayn → prototip → test → taqdimot. Zamonaviy moslamalar o'rniga arzonroq alternativlar tayyorlash (Arduino UNO o'rniga ESP8266 kabi). Guruhda rollarni taqsimlash: dasturchi, konstruktor, elektronchi, dizayner.

Aks holda qanday oqibatlar bo'ladi? Loyiha faqat "maket yasash" darajasida qolib ketadi – muhandislik kompetensiyalari shakllanmaydi. Kuchli talabalar ortiqcha yuklama oladi, sustlari esa umuman ko'nikma hosil qila olmaydi. Yakuniy natija bo'lmaydi – talabalarda motivatsiya pasayadi.

2. Muammo asosida o'qitish (Problem-Based Learning, PrBL)

Qo'llanishdagi murakkabliklar va noqulayliklar: Murakkab texnik muammoni tanlash qiyin. Haddan ortiq murakkab muammo talabaning psixologik "blok"iga olib keladi. Talaba muammoni tahlil qilishni bilmasa, dars muddati behuda ketadi. Masalan: "Robot chiziqni kuzatmayapti" masalasi uchun sensor, odometriya, kalibrash haqida asosiy bilim kerak. O'qituvchi yuqori malakaga ega bo'lishi shart.

E'tibor berish kerak bo'lgan jihatlari: Muammolarni oddiy → murakkab ketma-ketlikda berish. Muammoni tahlil qilish algoritmlarini oldindan o'rgatish: simptom → sabablar → test → yechim. Har bir muammoning "minimal nazariy paketi"ni berish.

Aks holda qanday oqibatlar bo'ladi? Talabalarda "men buni eplay olmayman" degan o'ziga ishonchsizlik shakllanadi. Dars "xatolar izlash"ga aylanadi, lekin muhandislik fikrlashi rivojlanmaydi. Ko'nikmalar yuzaki bo'ladi, real muammolarni hal qila olmaydigan o'qituvchi yetishib chiqadi.

3. STEM/STEAM integratsion o'qitish

Q'llanishdagi murakkabliklar va noqulayliklar: Fanlararo muvofiqlashtirishning yo'qligi. Fizika, matematika, texnologiya o'rtasida hamkorlik bo'lmasa – integratsiya amalga oshmaydi. O'qituvchidan ko'p yo'nalisli bilim talab qiladi. Texnologiya o'qituvchisi fizikadagi "moment"ni ham, matematikadagi "nisbat"ni ham tushunishi kerak. Vaqt va resurslar chegaralangan.

E'tibor berish kerak bo'lgan jihatlari: "IVF – Integrated View of Fields" bo'yicha treninglar o'tkazish. Topshiriqlarni faqatgina bir natijaga emas, ko'p fanli tahlilga qaratish. Har bir loyiha oldidan fizika-matematika asoslari qisqa takrorlanishi kerak.

Aks holda qanday oqibatlar bo'ladi? Amalda STEM emas, "faqat texnologiya darsi" bo'lib qoladi. Talabalar konstruksiya nega sinayotganini fizika nuqtai nazardan tushunmaydi. "Ko'prik loyihalash" topshirig'i o'yin-ko'ngilochar mashg'ulotga aylanadi, ilmiylik yo'qoladi.

4. Mechatronik modullar asosida o'qitish

Q'llanishdagi murakkabliklar va noqulayliklar: Elektronika, dasturlash, mexanika bitta modulga jamlanadi – bu talaba uchun og'ir. Arduino, servomotor, sensorlar bilan ishlashda xavfsizlik muammolari bo'lishi mumkin. O'qituvchi yetarlicha mechatronika bilimiga ega bo'lmasligi.

E'tibor berish kerak bo'lgan jihatlari: Dastur tuzishni soddadan boshlash: LED → servo → sensor → loyiha. Xavfsizlik bo'yicha yo'riqnoma: qisqa tutashuv, 5V/12V farqi, polaritet. Murakkab modullarni bosqichma-bosqich kiritish.

Aks holda qanday oqibatlar bo'ladi? Talaba kod nusxalab qo'yadi – real tushunchalar shakllanmaydi. Qurilma kuyib ketishi → laboratoriya ishlaridan qo'rquv paydo bo'ladi. Dasturlashdan qo'rqadigan, "elektrikdan cho'chiydigan" texnologiya o'qituvchilari shakllanadi.

5. Simulyatsiya va virtual laboratoriyalar

Q'llanishdagi murakkabliklar va noqulayliklar: Talaba real tajribani his qilmaydi – faqat ekrandagi model bilan ishlaydi. Dasturlar murakkab bo'lishi mumkin (ANSYS, SolidWorks, Adams). Kompyuterlar quvvati yetmasligi, dasturlar litsenziya muammosi.

E'tibor berish kerak bo'lgan jihatlari: Simulyatsiya → real tajriba → natija taqqoslash ketma-ketligi bo'lishi kerak. Eng soddaga ko'nikmalarni real laboratoriyada berib, keyin simulyatsiyaga o'tish. Tinkercad kabi soddaga platformadan boshlash, keyin murakkabiga o'tish.

Aks holda qanday oqibatlar bo'ladi? Talaba simulyatsiyadagi "ideal dunyo"ga moslashadi, real hayotdagi xatolarga tayyorlanmaydi. Virtual va real natija farqlari tushunilmasa – noto'g'ri muhandislik xulosalari beriladi. Amaliy kompetensiyalar sust rivojlanadi.

6. Ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan ta'lim (Dual education)

Q'llanishdagi murakkabliklar va noqulayliklar: Hamkor korxonaga topish qiyin – ko'pchilik korxonalar pedagogik tajribaga ega emas. Ishlab chiqarishda xavfsizlik talablari juda yuqori. Talabalar nazariy bilimni amaliyotga bog'lashda qiyinaladi.

Nimalarga e'tibor berish kerak? Amaliyot oldidan aniq reja: qaysi sex → qaysi jarayon → qanday topshiriq. Har bir talaba uchun nazorat daftarini yuritish. Talabani oddiy kuzatuvchi emas, kichik muhandis sifatida jalb qilish.

Aks holda qanday oqibatlar bo'ladi? Amaliyot "ekskursiya"ga aylanadi. Talaba biror tajriba olmasdan qaytadi. Ishlab chiqarishni tushunmaydigan texnologiya o'qituvchisi yetishib chiqadi – maktabda real muhandislikni o'rgata olmaydi.

7. Portfel va loyiha himoyasi asosida baholash

Q'llanishdagi murakkabliklar va noqulayliklar: Talabalar plagiatga murojaat qilishi (internetdan tayyor modellar). Portfelni to'g'ri tuzish bo'yicha ko'rsatmalar bo'lmasa – tartibsizlik yuzaga keladi. Baholash subyektiv bo'lishi mumkin.

E'tibor berish kerak bo'lgan jihatlari: Har bir loyiha uchun rubrika (baholash mezon) bo'lishi: funktsionallik, dizayn, innovatsiya, muammolarni hal qilish. Portfelga kichik refleksiya yozish talab qilinishi (talaba o'zi nimalarni o'rgandi?). Himoya jarayonida amaliy ko'rsatma bo'lishi: kodni tushuntirish, sxemani chizish.

Aks holda qanday oqibatlar bo'ladi? Talabalar portfelni "yasama qog'oz to'plami"ga aylantirib qo'yadi. Real kompetensiyalar emas, ko'rinish (imitation competence) baholanadi. Himoya jarayonida talabalarning bilim bo'shliqlari aniqlanmaydi.



8. Mentorlash va ustoz-shogird modeli

Qo'llanishdagi murakkabliklar va noqulayliklar: Tajribali mentor yetishmasligi. Mentor–shogird o'rtasida moslik bo'lmasligi. Mentorlik vaqt talab qiladi – intensiv yuklama.

E'tibor berish kerak bo'lgan jihatlari: Mentorlar tanlov asosida – haqiqiy muhandislik amaliyoti bo'lgan pedagoglar. Mentorlik jarayonida aniq maqsadlar qo'yish: dars o'tkazish, loyiha yaratish, modellashtirish. Har oy “mentorlik hisobotlari” tayyorlanishi.

Aks holda qanday oqibatlar bo'ladi? Mentorlik nomiga bo'ladi – real o'rgatish jarayoni bo'lmaydi. Talaba ustozning “darsini kuzatib turuvchi tomoshabin” bo'lib qoladi. Shogirda real pedagog-muhandis integratsiyasi shakllanmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Har bir metod – PBL, PrBL, STEM/STEAM, mechatronika, simulyatsiya, dual education, portfel baholash va mentorlik – muhandislik kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vositadir. Biroq ularning har biri muvaffaqiyatli bo'lishi uchun resurslar, o'qituvchi malakasi, metodik qo'llanmalar va manbalar, baholash tizimi hamda ishlab chiqarish bilan hamkorlik kabi omillar ta'minlanishi lozim. E'tiborsizlik yoki metodlarni qisman joriy etish pedagogik samaradorlikni pasaytiradi va hatto salbiy oqibatlarga olib kelishi, talabalarning noto'g'ri malaka shakllanishiga yoki xavfsizlik muammolariga sabab bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi metodlar to'g'ri yondashuv bilan, ta'kidlangan omillar inobatga olingan holda, tizimli, to'liq va kamchiliklarsiz qo'llanilganda, texnologik ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi – ya'ni texnologiya fani o'qituvchisi – muhandislikka oid texnik jarayonlarni tushunadi, ularni loyihalay oladi va tahlil qila oladi, zamonaviy texnika vositalari bilan ishlaydi, integratsion darslar o'ta oladi, real muammolarni hal qila oladi hamda maktabda yuqori samarali texnologiya fanini o'ta oladigan muhandis-pedagogga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi avlod muhandislarini tayyorlash va muhandislik ta'limini rivojlantirishga oid chora-tadbirlari to'g'risida” 08.09.2025-yildagi PQ-278-son qarori. <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” 08.10.2019-yildagi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lim muassasalarini nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020-yil 27-oktabrdagi 655-son qarori. <https://lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida” 29.03.2021-yildagi 163-son qarori. <https://lex.uz>
5. Savery, J. R. (2006). Overview of Problem-Based Learning: Definitions and Distinctions. *Purdue e-Pubs. Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning*, 1(1), 5–22. <https://doi.org/10.7771/1541-5015.1002>
6. Baş, G. (2011). Investigating the Effects of Project-Based Learning on Students' Academic Achievement and Attitudes Towards English Lesson. *The Online Journal of New Horizons in Education*, 1(4), 1–15.
7. H. Hidayat (2024). Two Decades of Project-Based Learning in Engineering (review). *TEM Journal*, 13(4), 3514–3525. ISSN 2217-8309. DOI: 10.18421/TEM134-84.
8. Daugherty, M. (2013). The Prospect of an “A” in STEM Education. *Journal of STEM Education*, 14(2), 10–15.
9. Negahban, A. (2014). Simulation in Engineering Education: The Transition from Physical Experimentation to Digital Immersive Simulated Environments. *SIMULATION*, 100(7), 695–708. <https://doi.org/10.1177/00375497241229757>
10. A. J. Magana (2017). Modeling and Simulation in Engineering Education: A Learning Progression. *Journal of Professional Issues in Engineering Education and Practice*, 143(4), 1–19. DOI: 10.1061/(ASE)EI.1943-5541.0000338
11. Zhiwei Guan, S. Lappenbusch, J. Turns, J. Yellin. *Portfolios in Engineering Education: What Do They Promise and How Can They Be Used?* American Society for Engineering Education, 2006–1858.
12. M. W. Ostheimer, E. M. White. *Portfolio Assessment in an American Engineering College. Assessing Writing*, 10(1), 61–73 (2005).
13. Tursunova, Sh. B., & Xakimova, X. (2024). Texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashdagi muammolar va istiqboldagi vazifalari. *Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal*, 1(12), 228–232.
14. Haydarov, R. M. (2021). Texnologiya ta'limi o'qituvchisining texnologik madaniyati. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (Maxsus son). ISSN 2181-1709 (P). DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.96.18.062>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.